

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11180741>

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI O‘QITISH METODIKASINING PREDMETI VA VAZIFALARI HAQIDA TUSHUNCHALAR

**Ortiqova Dilsabo Munavvarjon qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 2-bosqich talabasi

E-mail: [dilsaboortiqova1208@gmail.com](mailto:dilsaboortiqova1208@gmail.com)

**M.A. Hamrayev**

**Ilmiy rahbar:** Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrası professori v.b. filologiya fanlari nomzodi

E-mail: [m.a.hamrayev@gmail.com](mailto:m.a.hamrayev@gmail.com)

**ANOTATSIYA:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasining predmeti va vazifalari to‘liq asoslar bilan tushuntirib berilgan. Ona tili o‘qitish metodikasi o‘rganadigan masalalar to‘g‘risida ham so‘z yuritilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** metodika, ona tili o‘qitish metodikasi, grammatika, fonetika, nutq o‘stirish, ta‘lim-tarbiya.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье полностью раскрыты предмет и задачи методики преподавания родного языка в начальных классах.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** методика, методика преподавания родного языка, грамматика, фонетика, речевое развитие, воспитание.

**ABSTRACT:** In this article, the subject and tasks of the method of teaching the mother tongue in elementary grades are explained in full.

**KEY WORDS:** methodology, native language teaching methodology, grammar, phonetics, speech development, education.

Biz yaxshi bilishimiz kerakki, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fanining predmeti o‘quvchilarda nutqni o‘stirish, o‘qish va yozishni, grammatika va imloni o‘zlashtirib olish asosiy omillardan biridir. Metodika maktab oldiga qo‘yilgan ta‘lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqqan holda, ona tilini o‘rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilab oladi, ta‘lim-tarbiya berish jarayonini tekshirib boradi va ta‘lim berishning ilmiy asoslangan tizmini belgilab boradi. Qo‘shimcha qilib aytadigan bo‘lsak, ona tili o‘qitish metodikasi fani, amaliy fan hisoblanadi. Chunki

o'qituvchilar nazariyga asoslanib o'quvchilarni o'qitadi, tarbiyalaydi va o'stirishning amaliy vazifalarini bajarar ekan.

Metodika fani quyidagi masalalarni o'rganadi:

1. O'qitishning vazifalari va mazmunini aniqlaydi. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob beradi, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturlarini, ta'lim mazmunini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va qo'llanmalar yaratib, ularni takomillashtirib, samaradorligi va muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi.

2. O'qitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, o'quvchilar amaliy ishlari - mashqlar va yozma ishlarning izchil tizimini ishlab chiqadi, ya'ni „Qanday o'qitish kerak?“ savoliga javob tayyorlab beradi.

3. O'quvchilarga ona tilidan bilim berish va ko'nikma hosil qilishda ilmiy nuqtai nazardan eng foydali shart-sharoitlar haqidagi masalalarni hal qiladi, ya'ni „Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak?“ savoliga javob tayyorlaydi. Eng foydali materiallarni, metodlarni o'rganadi, tanlangan metodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi.[1]

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dastlabki bosqichi o'rganiladi, shu bilan bir qatorda, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada mavjud. Bularga boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatikasi, imlosi, nutq o'stirish metodikasini keltirishimiz mumkin shu bilan bir qatorda, xat-savod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qitish metodikalarini ham o'z ichiga oladi.

Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari. Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Metodika fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standart belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi.[2]

Bu tamoyillar boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasining vazifalarini ham belgilab, aniqlashtirib beradi. Ona tili o'qitish metodikasi fani ham ta'lim jarayonini tashkil etish shakllarini va usullarini ishlab chiqishda yuqoridagi maqsadlar asosida ish yuritadi. Umumiy o'rta ta'limning bir bosqichi bo'lgan boshlang'ich ta'lim

1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, bu bosqichda ta'limning yangicha tizimini va mazmuni shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

- o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

- ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash va hokazo.[3]

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasini asosiy predmetlari nutqni o'stirish, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirishdir deb aytohamiz. Hozirgi kunda o'quvchilarga bilim berish, ya'ni bilimlarini oshirishda mustaqil ishlarni ko'paytirish va bilimlarini hisobga olgan holda metodik tavsiyalar ishlab chiqmoqda. Shu bilan bir qatorda grammatik o'yinlarni ko'paytirish, texnik vositalardan unumli foydalanish, turli jadval va boshqotirmalardan foydalanish keng tus olmoqda va yetarlicha samara bermoqda. hozirgi kundagi boshlang'ich ona tili kitoblarini marakkabligini nazarda tutgan holda o'rganib chiqib, yangiliklar kiritishimiz asosiy rol o'yanamoqda. Shunday qilib, ona tili o'qitish fani ham qolgan fanlar singari rivojlanib kelmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi". T."Bayoz",2022. 4-6-betlar
2. Sariyev Sh. Savod o'rgatish darslarida nutq o'stirish. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. - Toshkent, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining, „Ta'lim to'g'risida" gi qonuni. //Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: „Sharq”, 2020.